YANGI O`ZBEKISTONDA UZ TURIZM

Yarashova Rushana Kamoliddin qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti
Xorijiy til va adabiyot yo`nalishi 1-bosqich talabasi

Anontatsiya: Ushbu maqolada turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etib borayotgani haqida, uning kelib chiqishi, yurtimizdagi turizm sohasi uchun qilingan islohatlat haqida so`z boradi. Uning rivojlanishi davlatlar o`rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga xissa qo`shgani haqida ham bayon qiladi..

Kalit so`z: Turizm, Shavkat Mirziyoyev, Movarounnahr, klassik, ekstremal, UNESCO.

Turizm o`zi nima? Uni qanday tushunamiz? Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

Turizmning tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo‘l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so‘ng u o‘zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlari AQSh ga jo‘natildi.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixonning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrdagi ijtimoiy hayot va sayyohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Odatda, turizm tashkilotlari orqali turizm marshrutlari bo‘yicha uyushtiriladi. Turizmning juda ko‘p turlari va shakllari mavjud. Ular ichki, xalqaro, havaskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, bilim saviyasini kengaytirish maqsadidagi turizm, toqqa chiqish, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar.



O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

"O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqqan:

- klassik yo‘nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz). Bu yo‘nalish eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalarga tashrif bilan bog‘liq;
- ekologik turizm yo‘nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo‘riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo‘riqxonalar). Bu yo‘nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog‘liq;
- arxeologik turizm yo‘nalishi (Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo, Samarqand hududlari bo‘ylab). Bu yo‘nalish O‘zbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo‘yadi;
- ekstremal turizm yo‘nalishi (Chimyon, Farg‘ona vodiysi, Orol bo‘yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo‘ylab);
- diniy turizm yo‘nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarni ziyorat qilish bilan bog‘liq.



O’zbekiston o’zining ko’plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o’ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O’zbekiston Buyuk ipak yo’lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo’g’rofiyashunoslar va missionerlar, isti’lochilar va zabt etuvchilarning yo’lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O’zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an’ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo’nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O’zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning “Butun dunyo me’rosi” ning maxsus ro’yxatiga kiritilgan.

Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshoatlar o’tmish zamonlarni o’zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o’ynaydi

Ko‘plab xalqaro nashrlarning fikriga ko‘ra, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibador sayyohlik joylaridan biriga aylangan. Kuni kecha Buyuk Britaniyaning The Telegraph gazetasi bu yil tashrif buyurish lozim bo‘lgan shaharlar ro‘yxatini e’lon qildi. Shular qatorida bizning Toshkent ham bor.

Yildan-yilga mamlakatimizga sayyohlar soni tobora ko‘payib borayotganini hisobga olsak, bu juda munosib e’tirofdir. Endi esa bir nechta raqamlarni keltirsak.

O‘tgan yilning yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonga **6,748 million** kishi tashrif buyurgan bo‘lib, bu **2018-yi**l statistikasidan **125 foizga (5,346 million kishi)** ko‘pdir.

O‘zbekistonga tashrif buyurgan turistlarning umumiy sonidan **6,260 million** kishi MDH mamlakatlaridan, **488,4 ming** sayyoh esa olis xorij mamlakatlaridan kelgan.

Shu bilan birga, **2019-yilda** turizm xizmatlarining eksporti **1,313 milliard** dollarni tashkil etgan, 2018-yilda u **1,041 milliard** dollariga teng bo‘lgan (o'sish 126 foiz).

Ushbu qiymatning yarmidan ko‘prog‘ini MDH mamlakatlaridan kelgan sayyohlar **(966,559 mln. AQSH dollari)** sarflagan, **346,472 mln**. dollar esa boshqa mamlakatlarning sayohatchilariga to‘g‘ri keladi.

Ko‘rib turganingizdek, O‘zbekistonda turizm jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda va bu juda yaxshi yutuq hisoblanadi, chunki bizda dunyoga namoyish etadigan jihatlarimiz bor. Yurtimiz turizm madaniyati bo`yicha ilg`or davlatlardan biri hisoblanadi. Turizmni rivojlantirish yuzasidan prezidentimiz ko`plab islohatlar olib bormoqda.



O‘zbekiston respublikasi prezidentining Toshkent shahar, farmoni
2022-yil 15-yanvar, PF-52-son
Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida

Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport yo‘nalishlarida infratuzilmani jadal rivojlantirish, obyektlardan samarali foydalanish, aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6199-son Farmoni hamda 2021-yil 6-apreldagi “Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-5054-son qaroriga muvofiq:

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-yanvardan 2023-yil 1-yanvarga qadar turizm faoliyati subyektlari va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan O‘zbekistonga charter reyslarini tashkil qilish bo‘yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 10 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 25 AQSh dollari miqdorida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

2. Belgilansinki, 2022-yil 1-maydan boshlab yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Davlat budjetidan Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan har bir tashabbuskorga 50 mln so‘m miqdorida, jami 10 mlrd so‘mgacha grantlar ajratiladi. Bunda:

- grant mablag‘lari onlayn to‘lovlarni qabul qiluvchi zamonaviy veb-sayt yaratishga, xorijiy mamlakatlardagi turizm ko‘rgazma va yarmarkalarida ishtirok etishga yo‘naltiriladi;
- grant mablag‘lari belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlardan O‘zbekiston Respublikasiga uch yil davomida kamida 200 nafar xorijiy turistlar uchun tur tashkil qilish sharti bilan ajratiladi.

Bosh vazir o‘rinbosari A.A. Abduxakimov 2022-yil 1-martga qadar yosh tadbirkorlarga grant ajratish tartibini tasdiqlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Umumiy ovqatlanish va turizm sohalarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5232-son qaroriga muvofiq, Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining asosiy moliyaviy manbai hisoblangan turistik (mehmonxona) yig‘imini hisoblash va to‘lash 2021-yil 1-sentabrdan to‘xtatilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) 2022-yil 1-fevraldan 2023-yil 1-yanvarga qadar Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga har oyda 2,5 mlrd so‘m miqdoridagi qo‘shimcha transfertlar Davlat budjetidan ajratilishini ta’minlansin.

4. Turizm va sport vazirligi (A.A. Abduxakimov):

a) mazkur Farmonning 3-bandiga muvofiq ajratilayotgan mablag‘larni Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibida belgilangan maqsadlar, shu jumladan hududlardagi salohiyatli turizm obyekti va maskanlarini birlamchi choralarni ko‘rgan holda turistlar tashrifi uchun tayyorlash va ularni targ‘ib qilish, xorijiy turizm va sport yarmarkalarida, ko‘rgazmalarda, loyihalar va dasturlarda qatnashish, vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirsin hamda ulardan to‘g‘ri va samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Turizm va sport vazirligi hamda uning hududiy bo‘linmalari xodimlarini qo‘shimcha rag‘batlantirish ular faoliyatining natijadorligi (KPI) va erishilgan yutuqlarga qarab amalga oshiriladi;

b) Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘lar tushishi va ulardan foydalanilishi to‘g‘risida har chorakda Moliya vazirligiga hisobot taqdim etib borsin.

Turizm va sport vaziri o‘rinbosari Z.O. Kazakov Turizm va sportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘lar tushishi va ulardan foydalanilishi to‘g‘risidagi hisobotlarni tuzish va taqdim etish yuzasidan shaxsan mas’ul ekanligi belgilab qo‘yilsin;

v) Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 2-ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduxakimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **https://uz.wikipedia.org/wiki/Turizm**
2. **https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari**
3. **https://lex.uz/uz/docs/-5825004**